

Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion usullarni yangi ta'lim darajasida qo'llashning ahamiyati.

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani 69-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Mo'minova Aziza Meliqo'ziyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida innovatsion usullarni yangi ta'lim darajasida qo'llashning ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan va ushbu usullarning samarasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: so'z boyligi, taqdimot, innovatsion usullar, zamonaviy, o'qituvchi mahorati, yangi ta'lim, raqamlar, so'zlar, charxpalak, didaktika...

Yangilangan ta'limda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Umumiy o'rta ta'lim kundan-kunga takomillashib, zamon talablariga mos holda, shaxs ehtiyojidan kelib chiqib faoliyat ko'rsatishi taqozo etmoqda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatida sifat jihatidan o'zgarishlarga imkon beruvchi pedagogik boshqaruv yangiliklari yuzaga kelmoqda. Bularning hammasi umumiy o'rta ta'limni boshqarishda murakkabliklarni keltirib chiqarib, ilmiy asoslangan yangi yechimlarni topishni zaruriyat qilib qo'yimoqda. Bu borada o'qituvchilardan darslarni fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etish, o'quvchilarni darsga qiziqtirish maqsadida turli usul va o'yinlardan foydalanishni talab etadi. Ona tili va adabiyot darslarida yangilangan ta'limda innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

“Raqamlarda so‘zlar yashirin” usuli.

Topshiriq. So‘zlar harflarning alifbodagi raqamlari bilan beriladi.

O‘quvchilar harflarning alifbodagi o‘rniga qarab hikmatli so‘zni topadilar.

21,1,19,1,13,13,818,4,21,12,14,168,23,12,14,13,3,1,13,3,8,17

Yashiringan so‘z: Vatanni sevmog‘ iymondandir .

Natija: Matematik savodxonlik kompetensiyasi singdiriladi.

4. Izohli diktant.

Topshiriq. O‘quvchilarga bir nechta iboralar ro‘yhatini taqdim qilinadi.

Ular berilgan iboralarga teng keladigan so‘zlarni yozadilar.

1. Yuragi orqasiga tortmoq – qo‘rqmoq

2. Kapalagi uchib ketdi – qo‘rqdi

4. Avzoyi buzuq – jahli chiqqan

5. Dimog‘i chog‘ bo‘ldi – xursand

Natija: “Izohli diktant” birinchidan, qiziq, miriqib ishlaydi, ijod qiladi, ikkinchidan fikrlashga chaqiradi.

“CHARXPALAK” usuli. Bu usul quyidagicha tashkil etiladi.

	So‘zlar	O‘quvchi ismi	Munosabat
	Ma’naviyat , ma’no,sa’va		
	She’r , fe’l , Ra’no		
	Qat’iyat , jur’at, ya’ni		
	Ba’zan , sun’iy , sur’at		
	Mas’uliyat , da’vogar , a’lo		
	Ma’rifat, ta’til, ta’na		
	Ju’ziy , mash’um , ma’yus		
	Ma’lum , e’tiqod , san’at		
	E’tirof , e’lon , in’om		
0	Ta’zir , a’yon , shu’la		

Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg‘ulot turidir. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan

foydalanishdan maqsad, avvalo, dars sifatini oshirish va samarali bo'lishini ta'minlash va o'quvchilarda nutqiy rivojlanish kompetensiyasini shakllantirishdir.

“Kim to‘g‘ri topadi” didaktik o‘yini.

Zomonlarda, saroyga, podishoh, karvonboshilar, kuzatip, badavlat, sovdagarlari, ichkarga, solig', deqqon, sabzovot, harsang, itora boshladi, shoxdan, a'zoi badani, muvaffaq, amallab.



To‘g‘ri yozilgan so‘zlar	Xato yozilgan so‘zlar
badavlat	kuzatip



“X mi yoki H” didaktik o‘yini. Bunda sinf uch guruhga bo‘linadi. Qur'a tashlash yo‘li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert guruhi jamoasi x va h undoshi ishtirok etgan so‘zlarni aralash holda aytaveradi, bu so‘zlardan bir jamoa tarkibida x undoshi ishtirok etgan so‘zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida h undoshi ishtirok etgan so‘zlar qatorini yozib boradilar. Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to‘xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o‘qituvchi uchala guruh ishlarini ko‘rib chiqib baholaydi.

Xullas, ta'lim jarayonida nafaqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta'lim oluvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ham ta'minlovchi interfaol usullardan ham foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Sh.Po‘latov “Ta’lim menejmenti,yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi”.2000-yil
- 2 Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari.
- 3.Internet saytlari:-ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz